DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-06-11-12 **Pages: 135-147**

Oriental Journal of Social Sciences

ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojss

ENSURING THE SUSTAINABILITY OF UZBEKISTAN–CHINA ECONOMIC COOPERATION: CHALLENGES AND SCENARIOS TO 2035

Alisher Garibjonovich Bekniyazov
Independent researcher
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: a.bekniyazov@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, China, economic cooperation, interdependence, external debt, trade balance, investment, scenario analysis.

Received: 02.11.2026
Accepted: 03.11.2026
Published: 04.11.2026

Abstract: The article analyses the factors that affect the sustainability of economic cooperation between Uzbekistan and China and the scenarios for its development to 2035. Drawing on the theory of interdependence, it identifies five factors that require management: imbalances in the trade structure, loan terms, concentration of investment, orientation towards extractive sectors, and technological standards. Each factor is assessed through an indicator based on official statistics. According to Chinese data, in 2025 China's exports to Uzbekistan were about 7.5 times larger than its imports, while Chinese financial institutions held about 10% of Uzbekistan's external public debt. The findings do not support the thesis that Chinese lending is risky for the borrower in the case of Uzbekistan; attention should shift from the volume of debt to its terms. Scenario analysis yields three trajectories: "balanced partnership", "unbalanced growth" and "multilateral diversification". For each scenario the article projects trade volumes and proposes monitoring indicators. It concludes with proposals on debt policy, investment screening, export promotion and monitoring.

O'ZBEKISTON–XITOY IQTISODIY HAMKORLIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MUAMMOLAR VA 2035-YILGACHA SSENARIYLAR

Alisher Garibjonovich Bekniyazov
Mustaqil tadqiqotchi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: a.bekniyazov@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Xitoy, iqtisodiy hamkorlik, o‘zaro bog‘liqlik, tashqi qarz, savdo balansi, investitsiyalar, ssenariy tahlili.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar va munosabatlarning 2035-yilgacha rivojlanish ssenariylari tahlil qilingan. O‘zaro bog‘liqlik nazariyasi asosida boshqaruv talab etadigan beshta omil ajratilgan: savdo tuzilmasidagi nomutanosiblik, qarz shartlari, investitsiyalar jamlanishi, xomashyo tarmoqlariga yo‘nalganlik va texnologik standartlar. Har bir omil rasmiy statistika asosidagi ko‘rsatkich orqali baholangan. Xitoy ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilda Xitoyning O‘zbekistonga eksporti importidan qariyb 7,5 baravar ko‘p bo‘lgan, Xitoy moliya institutlarining tashqi davlat qarzidagi ulushi esa taxminan 10 foizni tashkil etgan. Natijalar Xitoy kreditlari qarzdor uchun xatarli ekani haqidagi tezisni O‘zbekistonga nisbatan tasdiqlamaydi; e’tibor qarz hajmiga emas, uning shartlariga qaratilishi kerak. Ssenariy tahlili asosida uchta rivojlanish yo‘li taklif etilgan: «muvozanatli sheriklik», «nomutanosib o‘sish» va «ko‘p tomonlama diversifikatsiya». Har bir ssenariy uchun savdo hajmi prognozi va monitoring ko‘rsatkichlari berilgan. Xulosada qarz siyosati, investitsiyalarni ko‘rib chiqish, eksportni rag‘batlantirish va monitoring bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ: ВЫЗОВЫ И СЦЕНАРИИ ДО 2035 ГОДА

Алишер Гарибжонович Бекниязов
Независимый исследователь
Ташкентский государственный университет востоковедения
E-mail: a.bekniyazov@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, Китай, экономическое сотрудничество, взаимозависимость, внешний долг, торговый баланс, инвестиции, сценарный анализ.

Аннотация: В статье анализируются факторы, влияющие на устойчивость экономического сотрудничества Узбекистана и Китая, и сценарии его развития до 2035 года. На основе теории взаимозависимости выделены пять факторов, требующих управления: несбалансированность структуры торговли, условия кредитов, концентрация

инвестиций, ориентация на добывающие отрасли и технологические стандарты. Каждый фактор оценён через индикатор, основанный на официальной статистике. По данным Китая, в 2025 году китайский экспорт в Узбекистан примерно в 7,5 раза превышал импорт, а доля китайских финансовых институтов во внешнем государственном долге составляла около 10%. Результаты не подтверждают применительно к Узбекистану тезис о рискованности китайских кредитов для заёмщика; внимание следует перенести с объёма долга на его условия. На основе сценарного анализа предложены три траектории: «сбалансированное партнёрство», «несбалансированный рост» и «многосторонняя диверсификация». Для каждого сценария дан прогноз объёма торговли и предложены индикаторы мониторинга. В заключении сформулированы предложения по долговой политике, рассмотрению инвестиций, стимулированию экспорта и мониторингу.

Kirish. Xitoy bugun O‘zbekistonning eng yirik savdo sherigi. Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd dollarni tashkil etgan, shundan 17,2 mlrd dollari Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelgan [1]. Bu jami savdoning taxminan 21 foizidir. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni bo‘yicha ham Xitoy birinchi o‘rinda: 2026-yil 1-avgust holatiga mamlakatdagi 20 973 ta shunday korxonadan 6 241 tasi Xitoy kapitali ishtirokida tashkil etilgan [2].

Ikki davlat munosabatlarining siyosiy asosi ham mustahkamlanib bormoqda. 2024-yil 24-yanvarda Pekinda bo‘lib o‘tgan muzokaralarda munosabatlar «yangi davrda har qanday sharoitdagi har tomonlama strategik sheriklik» darajasiga ko‘tarildi. Qo‘shma bayonotda O‘zbekiston mahsulotlari importini ko‘paytirish, savdo va investitsiyalarni yengillashtirish, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li qurilishini boshlash, yangi energetika va qishloq xo‘jaligi texnoparklari bo‘yicha hamkorlik nazarda tutilgan [3]. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat yuritish, eksport hajmini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilash vazifalari belgilangan [4]. Demak, Xitoy bilan hamkorlikni kengaytirish va uni uzoq muddatda barqaror qilish bir-birini to‘ldiradigan vazifalardir.

Hamkorlik hajmi tez o‘sgan sari uni boshqarish masalalari ham murakkablashadi. Savdo balansi, kreditlarning shartlari, investitsiyalarning tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti va texnologik

standartlar kabi omillar alohida e’tibor talab qiladi. Bu omillar hamkorlikning o‘zidan emas, iqtisodiy salohiyatlar va iqtisodiyot tuzilmasidagi farqdan kelib chiqadi. Ularni o‘z vaqtida aniqlash va baholash hamkorlikni ikki tomon uchun ham foydali saqlashning sharti hisoblanadi.

Mintaqaviy miqyosda ham hamkorlik tez kengaymoqda. Xitoy bojxonasi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo 106,3 mlrd dollarga yetib, bir yilda 12 foizga o‘sgan, Xitoy mintaqaning barcha besh davlati uchun birinchi savdo sheriki bo‘lgan [5]. Shu fonda O‘zbekiston uchun asosiy savol hamkorlik hajmini oshirish bilan birga uning sifatini, ya’ni eksport tarkibi, qo‘shilgan qiymat va texnologik salohiyatga ta’sirini yaxshilashdan iborat. Mazkur savolga javob berish uchun hamkorlikni alohida bitimlar darajasida emas, uning tuzilmasi va dinamikasi darajasida baholash zarur.

Maqolaning maqsadi – O‘zbekiston–Xitoy iqtisodiy hamkorligida boshqaruv talab etadigan omillarni ko‘rsatkichlar asosida baholash va munosabatlarning 2035-yilgacha rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: 1) hamkorlikning barqarorligiga qaysi iqtisodiy omillar ta’sir qiladi va ularning hozirgi darajasi qanday; 2) 2035-yilgacha munosabatlar qaysi yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkin; 3) qaysi ko‘rsatkichlar qaysi ssenariy amalga oshayotganini erta aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot faqat iqtisodiy jihatga qaratilgan, harbiy-xavfsizlik masalalari ko‘rib chiqilmaydi.

Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda O‘zbekiston va Xitoyning 2025–2026-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlari va AidData tadqiqot laboratoriyasining yangi bazasi asosida omillar matritsasi tuzildi, uchta ssenariy uchun savdo hajmining miqdoriy prognozi berildi va monitoring uchun chegaraviy ko‘rsatkichlar taklif etildi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuning nazariy asosini o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi tashkil etadi. R.Keohane va J.Nay davlatlararo iqtisodiy aloqalarni «sezuvchanlik» (tashqi o‘zgarishlarning ichki iqtisodiyotga qanchalik tez ta’sir qilishi) va «zaiflik» (bunday o‘zgarishlarga moslashish xarajatlari) tushunchalari orqali tahlil qilgan [6]. Ularning fikricha, o‘zaro bog‘liqlik hech qachon to‘liq simmetrik bo‘lmaydi va uni boshqarish har bir davlat siyosatining doimiy vazifasidir. A.Xirshman esa tashqi savdo tuzilmasi, ya’ni savdo hajmi, tovarlar tarkibi va muqobil bozorlar mavjudligi ikki tomonlama munosabatlar xususiyatini belgilashini ko‘rsatgan [7]. Bu ikki yondashuv bizning tadqiqotda tahliliy vosita sifatida qo‘llanildi: ular savdo va investitsiyalar tuzilmasini baholash mezonlarini beradi.

Xitoy kreditlari haqidagi adabiyotda ikki qarash mavjud. Birinchisi Xitoy kreditlarini qarzdor davlat uchun xatarli deb talqin qiladi. D.Brotigem bu tezis empirik jihatdan yetarli asoslanmaganini va ko‘p hollarda qarz muammolari qarzdor mamlakatning o‘z qarorlari va bozor sharoitlariga bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatgan [8]. S.Xorn, K.Reynxart va K.Trebesh Xitoyning xorijiy kreditlari hajmi va shartlarini katta ma’lumotlar bazasi asosida o‘rganib, ularning katta

qismi tijorat shartlarida, ko‘pincha suzuvchi foiz stavkasi bilan berilishini aniqlagan [9]. A.Malik va hammualliflar 13 427 ta loyiha bazasi asosida Xitoy rivojlanish moliyasining tuzilmasi va qarzdor tomonidagi shartli majburiyatlar masalasini tahlil qilgan [10].

Markaziy Osiyo bo‘yicha tadqiqotlarda Xitoy ishtirokining siyosiy va ijtimoiy jihatlari o‘rganilgan. A.Kuli mintaqa davlatlari yirik tashqi sheriklar bilan munosabatlarda o‘z manfaatlarini faol himoya qilishini va «mahalliy qoidalar»ni belgilashini ko‘rsatgan [11]. M.Laryuel va S.Peyruz Xitoy omilini mintaqa davlatlarining ichki iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlari bilan bog‘liq holda tadqiq etgan [12]. Biroq bu ishlarning aksariyati 2023-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. O‘zbekiston uchun hamkorlikdagi muammoli omillarni ko‘rsatkichlar asosida baholaydigan va uzoq muddatli ssenariylar beradigan ishlar kam. Ushbu maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega va ochiq rasmiy ma’lumotlarning ikkilamchi tahliliga asoslanadi. Ma’lumotlar bazasini to‘rt guruh manba tashkil etdi: O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining tashqi savdo ma’lumotlari [1]; Xitoy bojxonasining mintaqa bo‘yicha ma’lumotlari [5; 13]; Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat qarzi bo‘yicha ma’lumotlari [14; 15]; AidData laboratoriyasining 2000–2023-yillardagi 204 loyihani qamrab olgan bazasi [16]. Me’yoriy-huquqiy asos sifatida «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi, «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi hamda «Davlat qarzi to‘g‘risida»gi qonunlar tahlil qilindi [4; 17; 18].

Ishda uch usul qo‘llanildi. Birinchisi – ko‘rsatkichlar asosidagi omillar matritsasi: har bir omil uchun ko‘rsatkich, uning joriy qiymati, ehtimollik va ta’sir darajasi belgilandi. Ehtimollik va ta’sir darajasi muallifning ekspert bahosidir. Ikkinchisi – P.Shvarts taklif etgan ssenariy tahlili [19]: ikki asosiy noaniqlik omili ajratilib, ularning uyg‘unlashuvidan ssenariylar tuzildi. Uchinchisi – oddiy ekstrapolyatsiya: 2025-yilgi savdo hajmi (17,2 mlrd dollar) har bir ssenariy uchun muallif belgilagan yillik o‘sish sur’ati bilan murakkab foiz formulasi asosida 2030 va 2035-yillarga uzaytirildi. Natijalar muallifning hisob-kitobi bo‘lib, rasmiy prognoz hisoblanmaydi.

Ko‘rsatkichlarni tanlashda uchta mezonga amal qilindi. Birinchidan, ko‘rsatkich ochiq rasmiy manbada e’lon qilingan va muntazam yangilanadigan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, u hamkorlikning muayyan jihatini, masalan savdo, qarz yoki investitsiyani alohida o‘lchashi lozim. Uchinchidan, ko‘rsatkich davlat organlari tomonidan choraklik yoki yillik monitoringda qo‘llanishi mumkin bo‘lishi kerak. Shu mezonlarga javob bermaydigan, ochiq manbalarda tasdiqlanmagan yoki tanlama so‘rovlarga asoslangan ma’lumotlar tahlilga kiritilmadi. Ehtimollik «yuqori» deb baholanganda omil joriy ko‘rsatkichlarda allaqachon namoyon bo‘lgani, «o‘rta» deb baholanganda esa u muayyan shartlar yuzaga kelgandagina kuchayishi nazarda tutildi. Ta’sir

darajasi omilning iqtisodiy o‘sish, to‘lov balansi va ishlab chiqarish tuzilmasiga ta’siri ko‘lamidan kelib chiqib belgilandi.

Ikki mamlakat statistikasi o‘rtasidagi farq ham inobatga olindi. 2025-yilgi ikki tomonlama savdo Xitoy ma’lumotlarida 16,1 mlrd dollarni, O‘zbekiston ma’lumotlarida esa 17,1 mlrd dollarga yaqin miqdorni tashkil etadi [5]. Shu sababli savdo tuzilmasini tahlil qilishda Xitoy ma’lumoti, umumiy hajm va prognoz uchun O‘zbekiston ma’lumoti asos qilib olindi, har bir ko‘rsatkichning manbasi alohida ko‘rsatildi.

Tahlil va natijalar. *1. Boshqaruv talab etadigan omillar.* Tahlil natijasida beshta omil ajratildi. Ularning ko‘rsatkichlari va muallif bahosi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekiston–Xitoy iqtisodiy hamkorligida boshqaruv talab etadigan omillar

Omil	Ko‘rsatkich	Joriy qiymati	Ehtimollik	Ta’sir darajasi
1. Savdo tuzilmasidagi nomutanosiblik	Xitoy eksportining importga nisbati, 2025-yil (Xitoy ma’lumoti)	14,2 / 1,9 mlrd doll. ≈ 7,5 baravar; saldo 12,3 mlrd doll. [5]	Yuqori	O‘rta
2. Qarz shartlari	Xitoy moliya institutlarining tashqi davlat qarzidagi ulushi, 01.01.2026	3,9 mlrd doll., taxminan 10% [14]	O‘rta	O‘rta
3. Investitsiyalar jamlanishi	Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalarning xorijiy kapitalli korxonalardagi ulushi, 01.08.2026	6 241 ta, 29,8% [2]	O‘rta	O‘rta
4. Xomashyo tarmoqlariga yo‘nalganlik	Xitoy rivojlanish moliyasida sanoat, tog‘-kon va qurilish ulushi, 2000–2023	58% (11 mlrd doll.) [16]	O‘rta	Yuqori
5. Texnologik standartlar va ta’minot zanjirlari	Xitoyning mintaqaga eksportida elektromexanika va yuqori texnologiyali mahsulotlar o‘rni	Eksport o‘sishining asosiy omili [13]	Yuqori	O‘rta

Izoh: ko‘rsatilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan; ehtimollik va ta’sir darajasi muallif bahosi.

Savdo tuzilmasi. Xitoy ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekiston Xitoydan 14,2 mlrd dollarlik tovar olgan va unga 1,9 mlrd dollarlik tovar sotgan [5]. O‘zbekiston ma’lumotida Xitoyga eksport 2,5 mlrd dollarga yaqin, biroq nisbat har ikki holatda ham salbiy saldoni ko‘rsatadi.

Importning katta qismini investitsiya tovarlari va asbob-uskunalar tashkil etgani uchun saldo qisman yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bilan izohlanadi. Bu quvvatlar eksportga yo‘naltirilsa, savdo balansi o‘z-o‘zidan yaxshilanadi. Agar eksport tarkibi o‘zgarmasa, nomutanosiblik tarkibiy xususiyat kasb etadi. 2024-yilgi qo‘shma bayonotda Xitoy tomonining O‘zbekistondan sifatli mahsulotlar importini ko‘paytirish niyati qayd etilgani [3] bu masalada ikki tomon manfaatlari mos kelishini ko‘rsatadi.

Qarz shartlari. 2026-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonning davlat qarzi 46,8 mlrd dollar, shundan tashqi qarz 39,8 mlrd dollarni tashkil etgan. Xitoy moliya institutlari oldidagi qarz 3,9 mlrd dollar bo‘lib, Jahon banki (8,9 mlrd) va Osiyo taraqqiyot banki (8,3 mlrd) ulushidan ancha kichik [14]. 2026-yil 1-iyul holatiga bu ko‘rsatkich 3,8 mlrd dollarga kamaydi [15]. Demak, qarz hajmi xavotirli darajada emas. E’tibor talab qiladigan jihat – shartlar. AidData ma’lumotiga ko‘ra, suzuvchi foizli kreditlar bo‘yicha marja 3,5–7,1 foizni tashkil etgan va 2022–2024-yillarda samarali yillik stavka 10 foizga yaqinlashgan; 2022-yilda asosiy qarz va foiz to‘lovlari 1 mlrd dollardan oshgan [16]. Xitoy kreditlarining 37 foizi davlat ozchilik ulushiga ega korxonalarga berilgan bo‘lib, ularning deyarli barchasi Markaziy Osiyo–Xitoy gaz quvuri loyihasiga tegishli [16]. Bunday kreditlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat qarzi emas, ammo shartli majburiyat sifatida hisobga olinishi kerak. Ijobiy ko‘rsatkich ham bor: to‘lov qiyinchiligi belgilari bo‘lgan kreditlar ulushi 11,2 foizni tashkil etadi, bu past va o‘rta daromadli davlatlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (29 foiz) ancha past [16].

Investitsiyalar jamlanishi. Xorijiy kapitalli korxonalarning qariyb 30 foizi Xitoy kapitali ishtirokida tashkil etilgan, ikkinchi o‘rindagi Rossiyada bu ko‘rsatkich 3 512 ta [2]. Korxonalar soni investitsiya hajmini to‘liq aks ettirmaydi, lekin Xitoy biznesining mamlakat iqtisodiyotiga keng kirib kelganini ko‘rsatadi. Bu holat yangi ish o‘rinlari va texnologiyalar keltiradi. Boshqaruv nuqtayi nazaridan esa investitsiyalarning tarmoqlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlanishi va mahalliy yetkazib beruvchilarning loyihalarda ishtirok etishi muhim.

Xomashyo tarmoqlariga yo‘nalganlik. 2000–2023-yillardagi 18,9 mlrd dollarlik Xitoy rivojlanish moliyasining 58 foizi (11 mlrd dollar) sanoat, tog‘-kon va qurilishga, 9 foizi transportga, 8 foizi energetikaga to‘g‘ri keladi [16]. Bu taqsimotning o‘zi salbiy emas: sanoat va qurilish iqtisodiy o‘sishning asosiy tarmoqlaridir. Boshqaruv talab etadigan jihat shundaki, tog‘-kon loyihalarida xomashyo chuqur qayta ishlanmasdan eksport qilinsa, qo‘shilgan qiymatning katta qismi mamlakatdan tashqarida yaratiladi. Muhim minerallarga jahon talabi oshayotgan sharoitda bu masala yanada dolzarb bo‘lmoqda.

Texnologik standartlar va ta’minot zanjirlari. Xitoy tijorat vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilda Xitoyning Markaziy Osiyoga eksporti 71,2 mlrd dollarga yetgan, o‘sishning asosiy omili elektromexanika va yuqori texnologiyali mahsulotlar bo‘lgan, elektromobillar, litiy

batareyalar va quyosh energetikasi mahsulotlari ulushi barqaror oshgan [13]. Bu mahsulotlar O‘zbekistonning energetika va transport tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Uzoq muddatda esa ehtiyot qismlar, dasturiy ta’minot, texnik xizmat va kadrlar tayyorlash masalalari ham hal qilinishi kerak. Shu sababli yirik texnologik loyihalarda texnologiya uzatish, mahalliylashtirish va mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha aniq shartlar belgilanishi hamkorlik barqarorligini oshiradi.

2. Ssenariylar tuzilishi. Ssenariylar ikki asosiy noaniqlik omili asosida tuzildi. Birinchi omil – Xitoy iqtisodiy ishtirokining sur’ati. U Xitoy iqtisodiyotining o‘sishi, temir yo‘l loyihasining muddatlari va jahon savdosidagi umumiy vaziyatga bog‘liq. Ikkinchi omil – O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiya salohiyati: institutsional boshqaruv sifati, eksportning raqobatbardoshligi va boshqa sheriklar bilan loyihalar ko‘lami. Ikki omil uyg‘unlashuvidan uchta asosiy ssenariy kelib chiqadi (2-jadval).

2-jadval. O‘zbekiston–Xitoy iqtisodiy munosabatlarining 2035-yilgacha ssenariylari

Ssenariy	Omillar uyg‘unligi	Savdoning yillik o‘sishi	Savdo, 2030-yil (mlrd doll.)	Savdo, 2035-yil (mlrd doll.)	Ehtimollik
A. Muvozanatli sheriklik	Ishtirok yuqori, diversifikatsiya salohiyati yuqori	8–10%	25,3–27,7	37,1–44,6	Taxminan 50%
B. Nomutanosib o‘sish	Ishtirok yuqori, diversifikatsiya salohiyati past	12–15%	30,3–34,6	53,4–69,6	Taxminan 30%
V. Ko‘p tomonlama diversifikatsiya	Ishtirok mo‘tadil, diversifikatsiya salohiyati yuqori	3–5%	19,9–22,0	23,1–28,0	Taxminan 20%

Izoh: 2025-yilgi savdo hajmi (17,2 mlrd dollar [1]) baza sifatida olingan; o‘sish sur’atlari va ehtimollik – muallif bahosi, prognoz qiymatlari murakkab foiz formulasi bo‘yicha muallif tomonidan hisoblangan. Ishtirok mo‘tadil va salohiyat past bo‘lgan to‘rtinchi uyg‘unlik alohida ko‘rilmadi, chunki uning amaliy oqibatlari B ssenariyga yaqin.

A ssenariy – «Muvozanatli sheriklik». Xitoy savdo va investitsiyalarda yetakchi sherik bo‘lib qoladi, uning jami savdodagi ulushi 20–25 foiz atrofida barqarorlashadi. Tashqi davlat qarzida Xitoy moliya institutlarining ulushi 10–12 foizdan oshmaydi. Temir yo‘l ishga tushgach tranzit daromadlari o‘sadi, Xitoyga eksportda qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari ulushi ortadi. Bu ssenariy 2024-yilgi qo‘shma bayonotda belgilangan yo‘nalishlarga eng ko‘p mos keladi [3].

B ssenariy – «Nomutanosib o‘sish». Savdo hajmi tez o‘sadi, ammo asosan import hisobiga. Xitoyning jami savdodagi ulushi 30 foizdan oshadi, salbiy saldo kengayadi, tashqi qarzdagi ulush 15 foizdan yuqoriga chiqadi. O‘zaro bog‘liqlik nazariyasi nuqtayi nazaridan bu holatda tashqi bozor o‘zgarishlariga moslashish xarajatlari oshadi [6]. Bu ssenariy Xitoy siyosati bilan emas, O‘zbekiston eksport salohiyati va investitsiyalarni tanlash mexanizmlarining yetarli rivojlanmaganligi bilan bog‘liq.

V ssenariy – «Ko‘p tomonlama diversifikatsiya». Xitoy bilan savdo mo‘tadil sur’atda o‘sadi, O‘zbekiston boshqa sheriklar bilan iqtisodiy aloqalarni ham faol rivojlantiradi. Bunga 2025-yil noyabrida AQSh bilan imzolangan qariyb 34,5 mlrd dollarlik iqtisodiy kelishuvlar va savdo shartnomalari [20], 2026-yil fevralida muhim minerallar va noyob yer elementlari bo‘yicha tuzilgan anglashuv memorandumi [21] hamda Yaponiya, Koreya Respublikasi, Yevropa Ittifoqi va Fors ko‘rfazi davlatlari bilan loyihalar misol bo‘ladi. Bu ssenariy Xitoy bilan hamkorlikning qisqarishini anglatmaydi; u «O‘zbekiston – 2030» strategiyasidagi ko‘p vektorli va pragmatik tashqi siyosat yo‘nalishini aks ettiradi [4].

Ssenariylarni taqqoslash bir muhim xulosaga olib keladi: savdo hajmining eng yuqori o‘sishi har doim ham eng yaxshi natija emas. B ssenariyda 2035-yilgi savdo hajmi A ssenariydagidan yuqori bo‘lishi mumkin, ammo bu o‘sish asosan import hisobiga yuz beradi va saldo kengayadi. A ssenariyda esa o‘sish sur’ati mo‘tadilroq, lekin eksport va import o‘rtasidagi nisbat yaxshilanadi, mahalliy ishlab chiqarish va tranzit xizmatlarining ulushi ortadi. Shu sababli hamkorlik samaradorligini baholashda faqat umumiy savdo hajmiga emas, uning tarkibi va saldosiga ham qarash lozim.

3. Monitoring ko‘rsatkichlari. Qaysi ssenariy amalga oshayotganini o‘z vaqtida aniqlash uchun to‘rtta ko‘rsatkich va ularning chegaraviy qiymatlari taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval. Hamkorlik barqarorligini kuzatish uchun monitoring ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Joriy qiymati	B ssenariyga o‘tishni bildiruvchi chegara
Xitoyning O‘zbekiston jami tashqi savdosidagi ulushi	Taxminan 21% (2025) [1]	30% dan yuqori
Xitoy eksportining O‘zbekistondan importga nisbati (Xitoy ma’lumoti)	≈ 7,5 baravar (2025) [5]	Uch yil ketma-ket o‘sish
Xitoy moliya institutlarining tashqi davlat qarzidagi ulushi	Taxminan 10% (01.01.2026) [14]	15% dan yuqori
Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalarning xorijiy kapitalli korxonalardagi ulushi	29,8% (01.08.2026) [2]	40% dan yuqori

Izoh: joriy qiymatlar ko‘rsatilgan manbalar asosida; chegaraviy qiymatlar – muallif taklifi.

Muhokama. Olingan natijalar Xitoy kreditlarining qarzdor davlat uchun xatarli ekani haqidagi tezisni O‘zbekistonga nisbatan tasdiqlamaydi. Xitoy moliya institutlarining tashqi davlat qarzidagi ulushi xalqaro moliya institutlarinikidan ancha kichik, to‘lov qiyinchiligi belgilari bo‘lgan kreditlar ulushi esa o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravardan ko‘proq past [14; 16]. Bu D.Brotigemning mazkur tezis masalani soddalashtiradi degan xulosasiga mos keladi [8]. Kreditlar shartlari bo‘yicha natijalar esa S.Xorn va hammualliflarning Xitoy kreditlari ko‘pincha tijorat shartlarida berilishi haqidagi xulosasini tasdiqlaydi [9]. Shu sababli muhokamani qarz hajmidan qarz shartlariga, ya’ni foiz stavkasi turi, muddat va shartli majburiyatlarga ko‘chirish to‘g‘ri bo‘ladi.

Asosiy boshqaruv vazifasi alohida omillarda emas, ularning birgalikdagi o‘sishidadir. Savdo, investitsiya, texnologiya va tranzit yo‘nalishlarining har birida bitta sherikning ulushi ortsa, ularning har biri alohida xavotirli bo‘lmasa ham, umumiy natija iqtisodiyotning tashqi o‘zgarishlarga sezuvchanligini oshiradi [6; 7]. Bu xulosa Xitoyga emas, har qanday yirik sherikka nisbatan ham o‘rinli. Shuning uchun taklif etilayotgan monitoring va investitsiyalarni ko‘rib chiqish tartibi barcha xorijiy sheriklarga bir xil qo‘llanishi lozim.

Mintaqa tajribasi ham shu xulosani qo‘llab-quvvatlaydi. Turkmaniston Xitoy bilan savdoda ijobiy saldoga ega yagona Markaziy Osiyo davlati, ammo bu saldo deyarli to‘liq tabiiy gaz yetkazib berish hisobiga shakllangan [5]. Demak, bitta xomashyo turi orqali savdo balansini tenglashtirish O‘zbekiston uchun namuna bo‘la olmaydi; bunga eksportning tarmoqlar bo‘yicha xilma-xil tuzilmasi orqali erishish mumkin. A.Kulining mintaqa davlatlari tashqi sheriklar bilan munosabatlarda o‘z qoidalarini belgilay oladi degan xulosasi [11] O‘zbekiston uchun ham dolzarb: hamkorlik shartlari ko‘p jihatdan milliy qonunchilik va institutlar sifatiga bog‘liq.

Bu jarayonda jamoatchilik bilan ochiq muloqot ham ahamiyatli. M.Laryuel va S.Peyruz Xitoy ishtirokidagi loyihalarning ijtimoiy qabul qilinishi ularning mahalliy aholiga beradigan foydasi qanchalik ochiq tushuntirilishiga bog‘liqligini ko‘rsatgan [12]. Shu sababli yirik loyihalar bo‘yicha ish o‘rinlari, soliq tushumlari va mahalliy ishtirok haqida muntazam axborot berish ularning barqarorligini oshiradi.

Natijalarni baholashda hamkorlikning ijobiy samaralarini ham hisobga olish kerak. Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar ko‘pligi, sanoat va qurilish loyihalarining moliyalashtirilishi, yangi energetika va transport texnologiyalarining kirib kelishi O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda [2; 16; 13]. Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li ishga tushgach, mamlakat mintaqaviy tranzitda yangi imkoniyatlarga ega bo‘ladi [3]. Shu nuqtayi nazardan maqolada ajratilgan omillar hamkorlikni cheklash uchun emas, uni uzoq muddatda ikki tomon uchun foydali saqlash uchun aniqlangan. Boshqaruv vositalari, ya’ni monitoring,

investitsiyalarni ko‘rib chiqish va eksportni rag‘batlantirish, ochiq va bashorat qilinadigan qoidalar asosida qo‘llanilsa, ular investorlar uchun ham ishonchli muhit yaratadi.

Tadqiqotning cheklovlari ham bor. Birinchidan, ikki mamlakat statistikasi bir xil emas va farqning sababi rasmiy manbalarda ochiqlanmagan [5]. Ikkinchidan, investitsiyalar hajmi va kredit shartlari bo‘yicha to‘liq ochiq ma’lumot mavjud emas, shu sababli korxonalar soni bilvosita ko‘rsatkich sifatida olindi. Uchinchidan, ssenariylarning ehtimolligi va o‘sish sur’atlari muallifning ekspert bahosidir; ularni keyingi tadqiqotlarda ekspertlar so‘rovi va ekonometrik modellar yordamida aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi. Birinchidan, O‘zbekiston–Xitoy iqtisodiy hamkorligida boshqaruv talab etadigan beshta omil mavjud: savdo tuzilmasidagi nomutanosiblik, qarz shartlari, investitsiyalar jamlanishi, xomashyo tarmoqlariga yo‘nalganlik va texnologik standartlar. Ehtimolligi eng yuqori omillar savdo tuzilmasi va texnologik standartlarga, ta’siri eng katta omil esa xomashyo tarmoqlariga yo‘nalganlikka tegishli.

Ikkinchidan, qarz masalasi ko‘pincha ortiqcha baholanadi: Xitoy moliya institutlarining ulushi tashqi davlat qarzining taxminan 10 foizini tashkil etadi va kamayib bormoqda. E’tiborni qarz hajmiga emas, suzuvchi foiz stavkalari va shartli majburiyatlarga qaratish kerak.

Uchinchidan, 2035-yilgacha uchta ssenariy ehtimoli mavjud: «muvozanatli sheriklik» (asosiy), «nomutanosib o‘sish» va «ko‘p tomonlama diversifikatsiya». Asosiy ssenariyda muallif hisob-kitobiga ko‘ra ikki tomonlama savdo 2035-yilda 37–45 mlrd dollarga yetishi mumkin. Qaysi ssenariy amalga oshishi ko‘p jihatdan O‘zbekistonning o‘z iqtisodiy siyosatiga bog‘liq.

Shu asosda hamkorlikni yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi. 1) Qarz siyosatida «Davlat qarzi to‘g‘risida»gi Qonun [18] doirasida bitta ikki tomonlama kreditorning tashqi davlat qarzidagi ulushi uchun indikativ chegara (masalan, 15 foiz) belgilash, suzuvchi foizli kreditlarni qat’iy foizli kreditlar bilan qayta moliyalashtirish imkoniyatini o‘rganish va shartli majburiyatlarni davlat qarzi hisobotida alohida ko‘rsatish. 2) «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunga [17] muhim minerallar, telekommunikatsiya, energetika tarmoqlari va ma’lumotlar markazlaridagi yirik xorijiy investitsiyalarni oldindan ko‘rib chiqish tartibini kiritish; bu tartib barcha xorijiy investorlarga bir xil qo‘llanilishi lozim. 3) Tog‘-kon loyihalari shartnomalarida mahalliy qayta ishlash ulushi, mahalliy kadrlar va texnologiya uzatish bo‘yicha miqdoriy majburiyatlarni belgilash. 4) «O‘zbekiston – 2030» strategiyasidagi eksport vazifalari [4] doirasida Xitoy bozori uchun alohida eksport dasturini qabul qilish: fitosanitariya protokollarini kengaytirish, qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va turizm xizmatlari eksportini rag‘batlantirish. 5) 3-jadvaldagi to‘rtta ko‘rsatkich bo‘yicha choraklik monitoring tizimini joriy qilish va natijalarni mas’ul davlat organlariga taqdim etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. For the first time in history, Uzbekistan’s foreign trade surpasses USD 81 billion // Dunyo axborot agentligi. – 2026. – Yanvar. URL: https://dunyo.info/en/news/for-the-first-time-in-history-uzbekistans-foreign-trade-surpasses-usd-81 (murojaat sanasi: 10.11.2026).

2. China accounts for nearly 30% of Uzbekistan’s foreign-invested firms // Trend. – 2026. – 24 August. URL: https://www.trend.az/casia/uzbekistan/4217487.html (murojaat sanasi: 10.11.2026).

3. Xi, Uzbek president hold talks, elevate ties to all-weather comprehensive strategic partnership for a new era // Xinhua; Belt and Road Portal. – 2024. – 24 January. URL: https://eng.yidaiyilu.gov.cn/p/099TTJJR.html (murojaat sanasi: 10.11.2026).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. URL: https://lex.uz/docs/6600413 (murojaat sanasi: 10.11.2026).

5. China reinforces its trade dominance in Central Asia, but numbers don’t always align // Eurasianet. – 2026. – 26 January. URL: https://eurasianet.org/china-reinforces-its-trade-dominance-in-central-asia-but-numbers-dont-always-align (murojaat sanasi: 10.11.2026).

6. Keohane R.O., Nye J.S. Power and Interdependence: World Politics in Transition. – Boston: Little, Brown, 1977. – 273 p.

7. Hirschman A.O. National Power and the Structure of Foreign Trade. – Berkeley: University of California Press, 1945. – 170 p.

8. Brautigam D. A critical look at Chinese ‘debt-trap diplomacy’: the rise of a meme // Area Development and Policy. – 2020. – Vol. 5, № 1. – P. 1–14. – DOI: 10.1080/23792949.2019.1689828.

9. Horn S., Reinhart C.M., Trebesch C. China’s overseas lending // Journal of International Economics. – 2021. – Vol. 133. – Article 103539. – DOI: 10.1016/j.jinteco.2021.103539.

10. Malik A., Parks B., Russell B., Lin J.J., Walsh K., Solomon K., Zhang S., Elston T., Goodman S. Banking on the Belt and Road: Insights from a New Global Dataset of 13,427 Chinese Development Projects. – Williamsburg: AidData at William & Mary, 2021. – 166 p.

11. Cooley A. Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. – New York: Oxford University Press, 2012. – 272 p.

12. Laruelle M., Peyrouse S. The Chinese Question in Central Asia: Domestic Order, Social Change and the Chinese Factor. – London: Hurst & Co., 2012. – 256 p.

13. China–Central Asia Trade Hits Record $106 Billion in 2025 // The Astana Times. – 2026. – 21 January. URL: https://astanatimes.com/2026/01/china-central-asia-trade-hits-record-106-billion-in-2025/ (murojaat sanasi: 10.11.2026).

14. Uzbekistan’s public debt rises 16.5% year on year to $46.8bn // Kun.uz. – 2026. – 25 February. URL: https://kun.uz/en/news/2026/02/25/uzbekistans-public-debt-rises-165-year-on-year-to-468bn (murojaat sanasi: 10.11.2026).

15. Uzbekistan’s public debt hits $48.3 billion at mid-year // Kun.uz. – 2026. – 25 August. URL: https://kun.uz/en/news/2026/08/25/uzbekistans-public-debt-hits-483-billion-at-mid-year (murojaat sanasi: 10.11.2026).

16. Uzbekistan 2000–2023: China Development Finance Profile. – Williamsburg: AidData at William & Mary, 2026. URL: https://docs.aiddata.org/ad4/pdfs/chinese-development-finance-profiles/2026/Uzbekistan_2000_2023_China_Development_Finance_Profile.pdf (murojaat sanasi: 10.11.2026).

17. «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2019-yil 25-dekabr, O‘RQ-598-son. URL: https://lex.uz/docs/4664142 (murojaat sanasi: 10.11.2026).

18. «Davlat qarzi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2023-yil 29-aprel, O‘RQ-836-son. URL: https://lex.uz/docs/6446817 (murojaat sanasi: 10.11.2026).

19. Schwartz P. The Art of the Long View: Planning for the Future in an Uncertain World. – New York: Doubleday, 1991. – 258 p.

20. Uzbekistan and the United States agree to multi-billion dollar investments after White House meeting // Euronews. – 2025. – 8 November. URL: https://euronews.com/2025/11/08/uzbekistan-and-the-united-states-agree-to-multi-billion-dollar-investments-after-white-hou (murojaat sanasi: 10.11.2026).

21. Uzbekistan, US formalize cooperation on critical minerals supply chains // Kun.uz. – 2026. – 5 February. URL: https://www.kun.uz/en/news/2026/02/05/uzbekistan-us-formalize-cooperation-on-critical-minerals-supply-chains (murojaat sanasi: 10.11.2026).